

**O'RTA ASR SHARQ ISTE'DOD EGALARINING IJTIMOIIY  
FALSAFIY QARASHLARI****Sultonov T. -***TDIU professri, falsafa fanlari doktori (DSc),  
Turon fanlar akademiyasi akademigi*

Movarounnahr fani va madaniyatini jahonshumul darajaga olib chiqqan ulug' vatandoshlarimiz-Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy; Hakim Termiziy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur kabi ulug' zotlar betakror insoniy zakovat va iste'dod egalari bo'lganlar. Chunonchi, uyg'onish davrining eng zabardast va kuchli namoyandasi, o'z zamonasining fundamental fan asoschilaridan biri sifatida bashariyat dunyoqarashi va ma'naviyatining rivojlanishiga beqiyos ta'sir ko'rsatgan Ahmad Farg'oniy Bog'dod va Shomda barpo etilgan yirik rasadxonalarga, ilmiy markazlarga rahnamolik qildi, matematika, astronomiyaga oid bilimlarni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. Hatto Nil daryosida oqayotgan suvning sathini o'lchab, quyosh tutilishini bir necha yil oldin bashorat qilib, butun dunyo ahlini xayratlantirgan edi. Uning bebaho merosi o'z davri olimlari uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilgani tarixiy manbrlar orqali yaxshi ma'lum.

Qomusiy olim, Hakim Termiziyning ma'naviyati, zakovat va iste'dodi shu darajada ilohiy yuksaklikka ko'tarildiki, bo'ladigan voqealarni oldindan ko'rib va aytib berdi. Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziyning ma'naviy merosi, jumladan, "Sunani Termiziy" asari ham musulmon olamida ana shunday yuksak qadrlanadi. Allomaning asrlar davomida olimu fuzalolarga dastur bo'lib kelgan insof va adolat, insonparvarlikni targ'ib etuvchi g'oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko'plab axloqiy-ma'naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e'tiborga molikdir. Zero "... tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davrimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri..."[1:29] sifatida qabul qilingan.

Aqliylik, rasionallik unsurlarini Kur'oni karim va xadislar to'plamidan boshlab kuzatish, ularda inson aqliga yuksak baho berilganini ko'rish mumkin. Qur'onning o'zida aqlga taalluqli so'zlar, aqala – fahmlamoq 50 marta, refren (naqorat) 13 karra, "ilm" o'zagi 750 marta qo'llangan [2:45]. Aql ilmga nisbatan kam ishlatilganiga qaramay, unga Qur'onda katta e'tibor berilgan. Qur'onda aqlning ulkan ne'mat ekani bayon etiladi, "Albatta bu narsalarda aqlli kishilar uchun belgilar bor". Biz oyatlarni aqlli kishilar uchun bayon qilib o'tdik. Aql insonning insoniyligini belgilovchi buyuk ne'matdir. Aqlingizni ishlatmaysizmi"[3:57-61] ("Baqara" surasi, 76 oyat) va h.k. Qur'ondan keyingi muqaddas hisoblangan xadislar to'plami - Sunnada ham aql, aqlli kishilarga oid bir talay mulohazalarni uchratish mumkin.

Faol aqlga ega bo'lmagan kimsa savollar mohiyatini hech qachon tushunib yetmaydi, u ko'rning o'zginasi bo'lib qoladi (Ibn Arabiy)[4:139]. Aql kategoriyasi ko'p ma'noli bo'lib, Al-Forobiy hamda Ibn Rushdda uning ko'p ma'noli va hajmli ekaniga alohida urg'u berilgan. Al-Kindiydan boshlangan aqlni tasniflash an'anasi o'rta asr musulmon sharqining barcha faylasuflari ijodida namoyon bo'ladi. Faqat, bu falsafiy an'ana keyinchalik, boshqa yo'nalishda faqat al-G'azzoliy ijodida o'z in'ikosini topgan edi.

Aqlni tasniflash birinchidan, mohiyatga asosan amalga oshiriladi va unga ko'ra aql ikkiga bo'linadi: ilohiy hamda insoniy aqlar. Ikkinchidan, ilohiy aqllar mavqei va darajasiga binoan ikkitaga bo'linadi: eng yuksak Aql (Alloh) va unga tobe fazoviy aqlar. Uchinchidan, insoniy aqlar kelib chiqishi - genezisi, vazifasi, maqsadi kabilarga ko'ra nazariy hamda amaliy. aqlga tasniflanadi. O'z navbatida nazariy va amaliy aqlarga nisbatan ham tasniflash davom ettiriladi.

Ikkinchi tomondan, aql bilishning birdan-bir, yagona mukammal quroli deb, qabul qilinadi. Falsafa aqlga yuksak e'tiqod qo'yadi hamda haqiqatni bilishda ko'tarinki ruh bilan yondashadi. Albatta, u bilish jarayonining murakkabligi va aql har doim ham muvaffaqiyat qozonavermasligini tan oladi.

Uchinchi, bu yoʻnalishda inson boʻqiyli muammosi aql bilan bogʻlanib oʻziga xos falsafiy yechimni topadi. U shundan iboratki, insonning foniidan boʻqiyga faqat aqlli rihlat *qiladi*. Shuni nazardan qochirmaslik kerakki, ushbu masala, islom faylasuflari al-Forobiy, Ibn Sino va Ibn Rushd taʼlimotida ham bir xilda yechilmaydi. Uchalalarida ham aql boyligi bor, biroq shu nuqtaga kelganda ular oʻrtasidagi oʻziga xoslik, tafovutni kuzatamiz. Azaliylik masalasi boʻyicha esa Ibn Rushd Forobiy va Ibn Sino fikriga qoʻshiladi. Insoniy aql yuqori darajaga koʻtarilib, faol aqlga yaqinlashgandan soʻng, boshqa insoniy aql bilan birlashib umuminsoniy aql sifatida abadiylikka erishadi. Ibn Sino ichki va tashqi sezgilar yordamida bilib boʻlmaydigan olam sirlarini inson aql kuchiga tayanib bilishi mumkin, deydi. Chunki insonning “individual aql”ga “dunyoviy aql” hamisha madad, koʻmak berib turadi. Xuddi shu madad inson aqliy quvvatini, xususan muhokama qilish, mulohaza yuritish salohiyatini oshiradi. Aqliy quvvat oshib borishi bilan sezgilar yordamida ilgʻab olinmagan olam sirlarini inson asta-sekin bilib olishga qodir boʻladi. Alqissa, Ibn Sinoning isbotlashicha, inson joni “dunyoviy aql” va “dunyoviy ruh” bilan qoʻshilganida, olamni bilish borasida muvaffaqiyatga erishadi[5:91-92].

Inson aqli insoniyat yaratgan turli bilimlarni oʻrganish, uni oʻzlashtirish asosida doimo rivojlanib boradi. Aqlni yanada rivojlantirmoq uchun inson tugʻri fikr-mulohaza yuritmoʻgʻi darkor. Buning uchun esa aqliy bilish, xususan mantiqiy bilish usullariga suyanmoʻgʻi lozim. “Mantiq, deb yozadi Ibn Sino, insonga shunday bir qoida berdiki, bu qoida yordamida inson xulosa chiqarishda xatolardan saqlanadi. Mantiqiy bilish yordamida inson xaqiqiy bilimni yolgʻondan ajratadi va nomaʼlum narsalarni oʻrganadi. Turli mantiqiy usullarni taʼriflash, hukm, xulosa chiqarish, ayniqsa isbotlash tufayli inson qobiliyati borgan sari rivojlanib boraveradi.

“Islom olamining eng mashhur faylasufi va qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri” degan unvonga sazovor boʻlgan Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati avlodlarga alohida gʻurur va ehtirom tuygʻularini uygʻotadi. Ilmiy tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan bu ulugʻ zot oʻz umri davomida 450 dan ortiq asar yaratdi. “Ibn Sino bobomiz kashf qilgan qanchadan-qancha dorivor giyohlar yurtimizda oʻsadi. Lekin biz ulardan foydalanish borasidagi anʼanalarni nega davom ettirmayapmiz, shunday tariximiz, ilmiy salohiyatimiz, imkoniyatimiz boʻla turib, buning jilovini nega kimlargadir berib qoʻymoqdamiz?”[1:63].

Ibn Sino yaratgan bilimlarning aksariyati, avvalo, tibbiyot va falsafa, shuningdek, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa, adabiyot va tilshunoslik sohalariga bagʻishlangan. Leonardo da Vinchi, Mikalanjelo, Frensis Bekon va boshqa koʻplab olimlar avlodi uning asarlarini oʻqib, xayratga tushganlar.

Musulmon faylasuflari ilk oʻrta asr sharoitidayoq aql tushunchasining maʼno va mohiyati, mazmun va shaklini aniqlab berishga harakat qildilar. Jumladan, Al Kindiy birinchilardan boʻlib “aql” toʻrt koʻrinish “imkoniy aql”, “voqeiy aql”, “faol aql”, “olamiy-ilohiy” aqllarda namoyon boʻladi[6:182], degan boʻlsa, Abu Nasr Forobiy “aql” oʻz, maʼnosiga koʻra “ilohiy” va “insoniy” aqlga boʻlinadi, degani gʻoyani ilmiy jamoatchilik hukmiga havola qilgan. Oʻz fikrini davom ettirib, “insoniy aql” oʻz mohiyatiga koʻra “nazariy aql”, “amaliy aql” va “tugʻma aql”ga boʻlinadi. Nazariy aql esa erishilgan darajasiga qarab: “imkoniy aql”, “voqeiy aql”, “orttirilgan aql” koʻrinishlarida namoyon boʻladi, degan.

Forobiyning taʼkidlashicha, “nazariy aql”ning birinchi koʻrinishi - “imkoniy aql” insonning ruhiy-maʼnaviy qobiliyati boʻlib, uning yordamida inson olam tugʻrisida maʼlumotga, turli tushunchalarga ega boʻladi. “Nazariy aql”ning inson tuygʻularidan farqi shundaki, u borliqning moddiy holati emas, balki turli tushunchalarda oʻz ifodasini topgan mavhumlikdir”[7:257]. Nazariy aqlning ikkinchi koʻrinishi- “voqeiy aql” - imkoniy aqlning voqelikka aylanishi natijasida hosil boʻladi. “Voqeiy aql” moddiy koʻrinishga ega boʻlmaydi. Forobiy talqinicha, xuddi shuning uchun ham, - “voqeiy aql” hamisha imkoniyatdagi aql boʻlib qolaveradi. U turli tushunchalarda oʻz ifodasini topganidagina voqelikdagi aqlga aylanadi[8:11-12].

Inson “nazariy aql”ning eng muhim koʻrinishi boʻlgan “imkoniy aql” “faol aql” yordamida “voqeiy aql”ga aylanadi. Oʻz navbatida, “faol aql” “orttirilgan aql”ga juda yaqindir [9:313-314]. Shuning uchun ham “faol aql” inson tafakkurining rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoitdir.

Bunday shart-sharoitsiz tafakkurning o'zi ham bo'lishi mumkin emas[10:33-34]. "Faol aql" tufayli inson buyuklikka donishmand, faylasuf, payg'ambar darajasiga ko'tariladi[11:34-36].

Forobiyning ta'kidlashicha, insoniy aqlning ikkinchi ko'rinishi "amaliy aql"dir. "Amaliy aql" insonning kundalik turmushdan orttirilgan, tajribasi asosida hosil bo'ladi. "Amaliy aql" yordamida inson kundalik turmushda nimani qilishi, nimani qilmasligini bilib oladi. Yoki hayotda orttirilgan tajriba inson amaliy aqlning asosini tashkil etadi. Inson qanchalik ko'p hayotiy tajribaga ega bo'lsa, u shunchalik mukammal amaliy aqlga erishadi[11:313-316]. Insonning amaliy aqli muhayyo qilish va fikrlash qobiliyatlarida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Muhayyo qilish qobiliyati orqali inson o'zidagi bunyodkorlik, yaratuvchilik malakalarini namoyish etsa, fikrlash orqali o'zidagi mushohada qamrovini namoyish etadi.

Forobiyning fikriga muvofiq, insoniy aqlning uchinchi ko'rinish "tug'ma aql"dir. "Tug'ma aql"ning kirib kelganligini insonning o'zi anglab yetmaydi. Chunki "tug'ma aql" inson tabiatiga ruh, orqali kirib keladi. Ruh orqali o'tib kelgan bunday qobiliyat tufayli o'zlashtirilgan bilimlar inson nazariy bilimlarining asosini tashkil etadi[9:79]. Forobiy ta'kidlaganidek, insondagi aql-zakovat ("aqliy quvvat") borliqning turli-tuman ko'rinishlarining aksidir. Inson o'zidagi o'sha aql-zakovat yordamida avval elda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning sabablarini, so'ngra esa osmon jismlarining siru-asrorini biladi. Insonning olam va odam tug'risidagi to'plagan bilimlari, ya'ni hayotligida yaratgan ma'naviy boyliklari, xech qachon yo'q bo'lib ketmaydi, balki "dunyoviy aql"ni tashkil etadi. Inson aql olam sirlarini bilishda eng yuksak cho'qqiga ko'tarilganda "kayxoniy aql", "kayxoniy ruh" bilan qo'shiladi.

Beruniyning e'tirof etishicha, insonning aqliy qobiliyatlari:

fikrlash, muhokama qilish, o'ylab topish – xotira, idrok, iroda bilan chambarchas bog'liqdir. Aqliy qobiliyatlar tufayli inson tashqi muhitda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning birini ikkinchisiga chog'ishtiradi, tahlil qiladi. Rostni yolg'ondan, adolatni adolatsizlikdan, yaxshini yomondan, haqiqatni nohaqiqatdan ajratadi.

Musulmon faylasuflari Al-Kindiy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy[11:78, 12:103-104], Ibn Rushdir o'rta asr sharoitidayoq aql to'g'risida bir butun yaxlit ta'limot yaratishga harakat qilganlar. Ushbu ta'limotga asoslangan sharqning buyuk allomalari – Mahmud az-Zamaxshariy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xoc Hojib va Ahmad Yugnakiy inson aql-zakovatini yanada mustaxkmlash, uning quvvatini oshirish yo'llarini izladilar. Aql dalillarini axloq-odob dalillariga qo'shish orqali inson aql-zakovatini oshirishga, imkoniyatlarini yaxshilik, ezgulikka ishlatishga da'vat etdilar. Aql bilan axloq-odob payvasta bo'lsa, biri ikkinchisini to'ldirsa, boyitsa, chinakam insoniy aqlilik ruy berishini har tomonlama isbotlab berdilar.

Aql to'g'risida falsafiy merosga - tayanib, ishonch bilan aytish, mumkinki, aqliy zukkolik insonning o'ta nodir qobiliyati, ruhiy ma'naviy faoliyatidir. Bu o'ta murakkab, nodir mo'jiza yordamida inson borliqning turli shakllari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va o'zaro ta'sir qonuniyatlarini, o'sha o'zaro aloqadorlik, o'zaro ta'sir mexanizmining mohiyati, hatto inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlarini ham bilib oladi. Xuddi shuning uchun ham aqliy zukkolik insonning olam va odamni bilish va uni o'zgartirish borasidagi faoliyatining asosini tashkil etadi.

Umuman, iste'dodli odamlar va buyuk zotlarning yuzaga kelishida aql, qobiliyat, zehn, istedod va irsiyatning o'rni beqiyosdir. Yuqorida biz sanab o'tgan belgilar, ko'rsatkichlar inson aqliy zukkoligining darajasi, holatini ifodalaydi. O'z navbatida, xuddi o'sha ko'rsatkichlar, belgilar inson aqliy zukkoligini aniqlovchi mezonlar vazifasini bajaradi. Ishonch bilan aytish mumkinki, fahm-farosat, fikr-mulohaza yordamida olingan ma'lumotlar axloq-odob dalillari bilan qo'shilgandagina chinakam aqliy zukkolik – donolik sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan yangi O'zbekistonning barkamol avlod kadrlarini tayyorlash va tarbiya tizimining asosiy manbalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak deb hisoblaymiz:

Sharq mutafakkirlari, shuningdek G'arb olimlarining insonparvarlik, aql, zehn, istedod, irsiyat xususidagi fikr-mulohazalarini istedodli bolalarning irsiy xususiyatlariga qarab ta'lim-tarbiya berish lozim.

Islom olami va islom dinidagi hayotning mohiyati, yashashdan maqsad, gunohdan qo'rqish kabi: ijtimoiy foydali g'oyalarning aql, tafakkur, istedod, irsiyat bilan bog'liqligini e'tibordan

qochirmaslik zarur. Iste'dod va irsiyatga o'zbek xalqining tarixiy an'analari, milliy turmush tarzi, odob-axloq talablari ta'sir etishini unutmazlik darkor. Tarbiya jarayonida nasl-nasab, ruhiy jarayon va tug'ma mayllar, bola va inson miyasining irsiyat bilan bog'liq jihatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Aytish joizki, nasl-nasab, irsiyat, ruhiyat haqida gapirish yaqin- yaqingacha burjuacha qarash hisoblangan edi. Holbuki, bu sohada G'arb olimlari umumetirof etilgan kashfiyotlar qilganlar. Nasl orqali tug'ma belgilarini tan olsak, tarbiyani bola tug'ilmasdan ancha oldin boshlash zaruriyatini chuqur his qilamiz. Shunda ota-onalar oldida mas'uliyat turganini ko'ramiz. O'z salomatliklarini mustaxkamlash, o'z turmush tarzini sog'lomlashtirish orqali bo'lajak farzandlari uchun baxt ato etayotganliklarini hamma ota-onalar ham tushunavermaydilar, Umuman, bu o'ta muhim masala odat tusiga kirmagan.

O'zbekiston tom ma'noda yoshlar yurti. Davlatimiz rahbariyati yoshlarni jamyatimizning yetakchi kuchi sifatida qaraydi. Shu sabab yoshlarga kilingai har qanday g'amxurlik, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash kelajakka tashlangan qadam bo'lib, uni oldindan tasavvur etish yo'lidagi intilishdir.

Yangi O'zbekistonda yoshlarga barkamol avlodga bo'lgan munosabat o'zbek xalqining milliy xususiyatlaridan kelib chiqadi. O'zbek milliy xususiyatiga binoan yosh yigit, qiz, o'spirinda g'arbdagi tengdoshlariga xos individualizm bilan sharq ijrmoiyligi uyg'unligi mavjud.

Hayot uchun yer, suv, havo, quyosh nuri qanchadik zarur bo'lsa, istedodni tarbiyalash ham shu qadar muhim va azizdir. Sog'lom ma'naviyat va mehr-e'tibor uyg'unligi o'sib kelayotgan yosh avlodning barkamolligi uchun o'ta zarurdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev bolani go'dakligidan ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiyalashni, bu davrda zamonaviy meditsina, pedagogik fanlari tavsiyalarini har qaysi oilada joriy qilish ayniqsa zarurligini tushunib, etdi.

Binobarin, - degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev, gar biz farzandlarimizni sog'lom va barkamol, Vatanga sodiq insonlar etib voyaga yetkazish niyatida ekanmiz, avvalo xotin-qizlar uchun ilm-fan va kasb-hunar yo'llarini keng ochib berishimiz kerak.

Agar biz bo'lg'usi xorazmiylar, farg'oniylar, beruniylar, buxoriylar, ulug'beklar, novojylarni tarbiyalamoqchi ekanmiz, birinchi navbatda, har tomonlama sog'lom, yuksak bilimli va ma'naviyatli onalarni tarbiyalashimiz zarur"[13:415].

Abdurauf Fitrat (1886-1938) o'z davrining axloqshunosi edi. Uning oila axloqi to'g'risidagi qarashlari XX asr o'zbek oila pedagogikasi rivojida muayyan o'rin tutadi. Umuman, bu qarashlar ushbu yetti o'ziga xos fikrdan iborat.

1. Oila axloqi er-xotinning o'zaro bir-biriga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishidan boshlanadi.

2. Oila farovonligini shakllantirish er va xotin zimmasida teng yuk bo'lib, u axloqqa kiradi.

3. Oilada iffat va nomusning bo'lishi baxtga olib keladi.

4. Oila pokligi uchun er-xotinning hamkorlikdagi harakati kerak, oila pokligini saqlash oila axloqining o'zaklaridan biridir.

5. To'g'ri jinsiy munosabatni yo'lga qo'yish oila axloqining uzviy qismlaridan hisoblanadi.

6. Oila merosiyu mador madaniyatining bo'limi axloqdagi yetuklikni bildiradi.

7. Oila axloqidagi eng nozik, murakkab va eng yomon halol jihat bu – taloqdir.

Umuman, Abdurauf Fitratning oila haqidagi o'ziga xos konsepsiyalar mohirlik bilan bayon qilingan Ushbu konsepsiya va qarashlar yuz yil o'tib, hozirgi XXI asr birinchi yarmida ham ahamiyatini yo'qotgan emas.

Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin.

Shunday qilib, dunyoviy va islom madaniyatidagi aqlga oid g'oya va qarashlarning asosiy yo'nalishlari kalom, tasavvuf, falsafa aqlni o'ziga xos tarzda talqin etadi hamda mazmun jihatidan o'zgartiradi, modifikasiyalaydi. Yoshlar bizning kelajagimiz. Bu sohadagi davlat siyosatini yanada

chuqurlashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati tug‘risida”gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi.

Bularning barchasi bugungi kunda o‘z samarasini bermoqda. Yoshlarimiz biznes, ilm-fan, madaniyat, san’at, adabiyot va sport sohalarida olamshumul muvoffaqiyatlarga erishmoqda.

#### ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.1.-Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. 592 б.
2. Куръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. –Т.: 2004.
3. Мухсинов, Ф.У. (1997). Мусулмон шарқ фалсафасида ақл талқини ва у ҳақидаги таълимотлар. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 5, 57-61.
4. Чориев А. Инсон фалсафси. Иккинчи китоб. Мустақил шахс. –Т.: “Чинори НИК” – 2002.
5. Маънавийат юлдузлари. *Тузувчи ва масъул муҳаррир М.М.Хайруллаев* – Тошкент, 1999. 400 б.
6. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Б. 1993.
7. Философский экономический словарь. –М.: 1989. 580 с.
8. Аль-Фароби. О значениях (слова) разум. Аль-Фароби. О разуме и о науке. –М., 1975.
9. Аль-Фароби. Философские тракти. –Алма-Ата. 1972.
10. Шаймухамбетова Г.Б. Учение. Платона идеях и теория разума аль-Фароби. Научное творство. –М.: 1975.
11. Аль-Фароби. О разуме и науке. –М.: 1975.
12. Аль-Фароби. Логические тракти. Алма-Ата, 1975.
13. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. Т. 4- Т.: «Ўзбекистон» НМИУ 2020.-452 б.

#### REZYUME:

Mazkur maqolada Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkir va allomalarning ilm-fan va maъnaviyat taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasi tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** aql, nazariy aql, amaliy aql, faol aql, ilohiy aql, insoniy aql.

#### РЕЗИОМЕ:

В данной статье анализируется огромный вклад великих мыслителей и ученых, вышедших из Мавераннахра в развитие науки и духовности.

**Ключевые слова:** сознание, теоретическое сознание, практическое сознание, активное сознание, божественное сознание, человеческое сознание.

#### RESUME:

This article analyzes the incomparable contributions of the great thinkers and scientists who emerged from Maverannahr to the development of science and spirituality.

**Keywords:** consciousness, theoretical consciousness, practical consciousness, active consciousness, divine consciousness, human consciousness.